

QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI

“Iqtisodiyot” fakul’teti

“Innovatsion iqtisodiyot” kafedrası



“MUTAXASSISLIKA KIRISH”

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	400000	- Biznes, boshqaruv va huquq
Ta'lim sohasi:	410000	- Biznes va boshqaruv
Ta'lim yo'nalishi:	60411700	- Logistika (agrologistika)

QARSHI – 2022 yil

Fan (modul) kodi MTH104	O'quv yili 2022-2023	Semestr 2	ECTS krediti 4
Fan (modul) turi Majburiy fan	Ta'lim tili o'zbek	Haftalik dars soati 5	
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim	Jami yuklama
1. Mutaxassislikka kirish	60	60	120

2. 1.Fanning mazmuni va maqsadi

Iqtisodiyot rivojlanar ekan, aholi, turmush darajasi, qashshoqlik va daromadlarni qayta taqsimlashda o'zgarishlar bo'ladi. Shu sababli, turli mamlakatlarda aholi soni va tuzilishidagi o'zgarishlar va rivojlanishning boshqa ta'sirlari o'rganiladi.

"Mutaxassislikka kirish" fani iqtisodchilarning asosiy fundamenti bo'lib, u birinchi kursda o'qitiladi. "Mutaxassislikka kirish" fanning maqsadi iqtisodchilarga "Ta'lim to'g'risida"gi qonun haqida tushuncha, Qonunning maqsadi va vazifalari, ta'lim sohasida davlat siyosati, O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi va turlari, Oliy ta'lim sohasining umumiy tavsifi va bu borada kadrlar tayyorlashga zaruriyatning mavjudligi, Oliy ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar, ta'lim dasturining mazmuni va komponentlari, bakalavrlar tayyorgarlik sifatini nazorat qilish va baholash, oliy o'quv yurtlari boshqaruvining markaziy, hududiy organlari va ularning vazifalari, Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining tashkiliy tuzilmasi, oliy o'quv yurtlarining fakultetlari, kafedralari va ularning vazifalari, oliy o'quv yurtlarida talabalarni o'qitishning o'ziga xos-hususiyatari. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini tashkil etishda qo'llaniladigan meyoriy hujjatlar va ularning mamuni. Mutaxassislikning kvalifikatsion (malakaviy tavsifi), mutaxassis tayyorlashning o'quv rejasi va uning mazmuni, ma'ruza, amaliy va laboratoriya darslari va ularning mutaxassislar tayyorlashdagi roli, mutaxassislar shakllanishida bitiruv malakaviy va kurs ishlarining ahamiyati, talabalar bilimni baholashning reyting tizimi, axborot-resurs markazining asosiy vazifalari, ARM xodimlarining huquq va majburiyatlari va foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish bo'yicha majburiyatlari kabi masalalarni o'rgatadi.

"Mutaxassislikka kirish" fani kelajakda iqtisodchilar xo'jalik yuritishni qanday qilib eng tejimli mablag' sarf qilgan holda amalga oshirish mumkinligini ilmiy jihatdan o'rgatib, ushbu sarf orqali eng yuqori natijalarga erishishni ta'minlovchi sharoit va omillarni izlab topishga undaydi. Yana boshqacha ta'rif bo'yicha iqtisodiyot-bu cheklangan resurslar sharoitida cheksiz ehtiyojlarni qondirish uchun jamiyat, tarmoq, korxona tanlaydigan vositalarini bayon qiluvchi va tahlil etuvchi ijtimoiy fandir.

"Mutaxassislikka kirish" fani bozor munosabatlarni chuqurlashtirish sharoitida talabalarda zamonaviy iqtisodiyot va innovatsiya ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Fanni o'qitishdan maqsad – Mutaxassislikka kirish fanning asosiy maqsadi talabalarining oliy o'quv yurti hayotiga tezroq moslashishga yordam berish, o'quv jarayonida ularning o'zlashtirishini yaxshilash va shu asosda talabalar safidan chiqarish ko'rsatkichlarining keskin kamayishini ta'minlashdan iboratdir.

Fanning vazifasi – talabalarga o'z mutaxassisligi bo'yicha boshlang'ich ma'lumotlar berish, talabalarga universitet ichki tartib-qoidalarini o'rgatish, tanlagan mutaxassisligi bo'yicha kelgusidagi faoliyati haqida tushuncha hosil qilish, oliy o'quv yurtlarida talabalarining huquq va majburiyatlari haqida ma'lumotlar berish, axborot vositalari bo'yicha umumiy bilimlarni berishdan iboratdir.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) II. 1. Fan tarkibiga qo'yidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. O'zbekiston Respublikasida ta'limga oid meyoriy hujjatlar

"Ta'lim to'g'risida"gi qonun haqida tushuncha, Qonunning maqsadi va vazifalari. Ta'lim sohasida davlat siyosati. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi va turlari. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning maqsadi va vazifalari. Kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari, uni ro'yobga chiqarishga doir tashkiliy chora-tadbirlar.

2-mavzu. Oliy ta'lim sohasida bakalavrlarning mazmuni va tayyorgarlik darajasiga qo'yilgan talablar

Oliy ta'lim sohasining umumiy tavsifi va bu borada kadrlar tayyorlashga zaruriyatning mavjudligi. Oliy ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar. Ta'lim dasturining mazmuni va komponentlari. Bakalavrlar tayyorgarlik sifatini nazorat qilish va baholash.

3-mavzu. Oliy o'quv yurtlarida boshqaruv va ularning strukturasi

Oliy o'quv yurtlari boshqaruvining markaziy, hududiy organlari va ularning vazifalari. Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining tashkiliy tuzilmasi. Oliy o'quv yurtlarining fakultetlari, kafedralari va ularning vazifalari.

4-mavzu. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini tashkil etish

Oliy o'quv yurtlarida talabalarni o'qitishning o'ziga xos-hususiyatari. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini tashkil etishda qo'llaniladigan meyoriy hujjatlar va ularning mamuni. Mutaxassislikning kvalifikatsion (malakaviy) tavsifi. Mutaxassis tayyorlashning o'quv rejasi va uning mazmuni.

5-mavzu. O'quv darslarining turlari va ularning mutaxassislar tayyorlashdagi roli

Ma'ruza darslari va ularning mutaxassislar tayyorlashdagi roli. Laboratoriya va amaliy darslar. Mutaxassislar shakllanishida bitiruv malakaviy va kurs ishlarining ahamiyati. Pedagogik texnologiyalar va ularning talabalar bilimni oshirishdagi ahamiyati. Talabalar bilimni baholashning reyting tizimi.

6-mavzu. Innovatsion ta'lim texnologiyalari

Innovatsion ta'lim. Innovatsion ta'lim to'g'risida tushuncha. Ta'lim innovatsiyalari. Innovatsion faoliyat. Innovatsion ta'limning ahamiyati va mazmuni.

7-mavzu. Interfaol ta'lim metodlari va ulardan foydalanish tartibi

Interfaol ta'lim metodlari, ulardan foydalanish tartibi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, uning turlari. Hamkorlik ta'limi yo'nalishlari. Grafik organayzerlar. Grafik organayzerlarning turlari hamda talabalarining mavzularning o'zlashtirishdagi ahamiyati.

8-mavzu. Zamonaviy ta'limda xorijiy tajribalar

Xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimi. Modulli ta'limning ahamiyati va mohiyati. Zamonaviy ta'lim shakllari: blended learning (aralash o'qitish), masofali o'qitish, mahorat darslari, webinar, evristik metodlar. Zamonaviy ta'limda tyutorlik, supervizorlik va moderatorlik faoliyati.

9-mavzu. Axborot resurs markazi va ularning talabalar bilimni oshirishdagi roli

Axborot-resurs markazi. Axborot-resurs markazining asosiy vazifalari. Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining ARM fondi. ARM xodimlarining huquq va majburiyatlari. ARMning foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish bo'yicha majburiyatlari.

10-mavzu. Talabalarining ilmiy-ijodiy faoliyatini tashkil etish. Oliy o'quv yurtlari talabalarining huquq va majburiyatlari

Talabalarining ilmiy faoliyati to'g'risida tushuncha. Talabalarga ilmiy faoliyatni shakllantirishning usullari va muammolari. Talabalarining ijodiy faoliyati to'g'risida tushuncha va bu borada ishlarni tashkil etish. Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti talabalarining ilmiy ijodiy faoliyatidagi yutuqlari.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. O'zbekiston Respublikasida ta'limga oid me'yoriy hujjatlar.
2. Oliy ta'lim sohasida bakalavriatlarining mazmuni va tayyorgarlik darajasiga qo'yilgan talabalar.
3. Oliy o'quv yurtlarida boshqaruv va ularning strukturasi.
4. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini tashkil etish.
5. O'quv darslarining turlari va ularning mutaxassislar tayyorlashdagi roli.
6. Innovatsion ta'lim texnologiyalari.
7. Interfaol ta'lim metodlari va ulardan foydalanish tartibi.
8. Zamonaviy ta'limga xorijiy tajribalar.
9. Axborot resurs markazi va ularning talabalar bilimni oshirishdagi roli.
10. Talabalarining ilmiy-ijodiy faoliyatini tashkil etish. Oliy o'quv yurtlari talabalarining huquq va majburiyatlari.

Amaliy mashg'ulotlar multimediyaga qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni
2. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning maqsadi va vazifalari.
3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida oliy ta'lim sohasini rivojlantirish muammolari va istiqbollari.
4. Innovatsion ta'lim texnologiyalarining talabalar bilimni oshirishdagi roli
5. O'quv darslarining turlari va ularning mutaxassislar tayyorlashdagi roli.
6. Interfaol ta'lim metodlari va ulardan foydalanish tartibi.
7. Grafik organayzerlar va ularning turlari
8. Zamonaviy ta'limga xorijiy tajribalar
9. Talabalar bilimni nazorat qilishning reyting tizimi.
10. Axborot-resurs markazi va ularning talabalar bilimni oshirishdagi roli.
11. Talabalarining ilmiy-ijodiy faoliyatini tashkil etish.

12. Talabalarining institut jamoatchilik, ma'naviy-axloqiy va ma'rifiy ishlardagi ishtiroki
13. Oliy o'quv yurtlari talabalarining huquq va majburiyatlari

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan loyiha ishi, esse, tezis yoki ilmiy maqola yozish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- "Mutaxassislikka kirish" faniga tegishli bo'lgan "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", mutaxassislikning tavsifi, mutaxassislikka qo'yiladigan talablar, oliy ta'lim tizimida mutaxassislar tayyorlashning hozirgi zamon talablari, oliy ta'lim mutaxassisligining mazmuni mohiyati haqida *tasavvur va bilimga ega bo'lishi*;
- O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining mohiyati, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning maqsadi va vazifalari, oliy ta'lim sohasini rivojlantirish muammolari va istiqbollari, iqtisodiyot sohasi yo'nalishlari bakalavriatlarining tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar, Oliy o'quv yurtlarida boshqaruv strukturasi, Zamonaviy ta'limga xorijiy tajribalar, Oliy o'quv yurtlari talabalarining huquq va majburiyatlari haqida *ko'nikmalarga ega bo'lishi*;

- iqtisodiyot sohaslarida tadbirkorlik ishini tashkil qilish va uni boshqarish, bajarayotgan faoliyat bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, korxonalar iqtisodiyoti faoliyatini o'rganish; iqtisodiyot sohaslarida zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter texnikalari va kommunikatsion vositalarini amaliyotda keng qo'llash, iqtisodiyot sohaslarida faoliyat olib boradigan tadbirkorlik biznes rejasini ishlab chiqish, berilgan mavzu bo'yicha axborotlarni to'plash, ishlov berish, o'rganish va tizimlashtirish, mamlakatimiz va xorijiy davlatlarda iqtisodiyot sohaslarida erishilgan fan-texnika yutuqlari, maxsus adabiyotlar va boshqa ilmiy-texnik axborotlarni o'rganish, internet tarmog'idan iqtisodiyot sohaslaridagi eng yangi fan-texnika yutuqlari haqidagi ma'lumotlarni to'plash bo'yicha *malakalarga ega bo'lishi kerak*.

Bundan tashqari talabalar o'zlarini qiziqitirgan mavzu bo'yicha taqdiqot savollarini shakllantirishlariga olib keladi.

VI. Ta'lim berish usullari va ta'lim texnologiyalari

Darsda quyidagi o'quv usullari va shakllari qo'llaniladi:

- ma'ruzalar
- amaliy mashg'ulotlar
- o'qituvchilarning maslahatlari
- mustaqil ish
- interfaol keys-stadlar
- taqdimotlar
- esse yozish
- guruhlarda ishlash
- individual loyihalar

Talabalar darslarda qatnashishdan oldin bir qator tayyorgarlik darslarini bajarishlari kerak.

VII. Kreditlarni olish uchun talabalar

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks etira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat

shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test yoki yozma ishini topshirish.

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T., - "O'zbekiston", 1992 y.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni. Toshkent, "O'zbekiston", 2020 yil 23 sentabr. O'RQ-637
3. O'zbekiston Respublikasi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Toshkent, "O'zbekiston", 1997 yil.
4. "Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi qonuni. Toshkent. 1996 y.
5. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalarini pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). T.: "Iste'dod" jamg'armasi, 2008 - 180 b.
6. John C. Smart · Michael B. Paulsen Editors —Higher Education: Handbook of Theory and Research/ Springer Science — Business Media B.V 2011
7. A.Mavlyanov va boshqalar "Zamonaviy pedagogik texnologiya tamoyillari asosida dars mashg'ulotlarini olib borish texnologiyasi". uslubiy qo'llanma. Toshkent 2010.

Qo'shimcha adabiyotlar

8. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik — har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11 (6705)
9. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, "O'zbekiston" NMIU, 2017. — 29 b.
10. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. "O'zbekiston" NMIU, 2017. — 47 b.
11. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston" NMIU, 2017. — 485 b
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947-sonli Farmoni.
13. Mirziyoyev Sh.M. Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 7 fevralda bo'lib o'tgan majlisida ma'ruzasidan "2017–2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning harakatlar strategiyasi" "Xalq so'zi" gazetasi, 08.02.2017
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 24 yanvar
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Agrar ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 2020 yil 30 iyuldagi PQ-4795-sonli qarori.
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqi. 2020 yil 23 sentabr

Axborot manbalari

17. www.tdiu-makro.narod.ru
18. <http://www.tsau.uz> — TJAY elektron kutubxonasi
19. <http://lex.uz> — O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi

20. www.ziyounet.uz — ta'lim portali

21. www.edu.uz — O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi sayti.

22. www.unesco.org — BMTning maorif, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti sayti.

23. www.unesco.org/env/esc/ — BMTning iqtisodiyot komissiyasi sayti

24. www.unfra.org — BMTning aholishunoslik dasturi sayti.

25. www.who.org — Butunjahon sog'liqni saqlash tashkilotining sayti.

7	Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. Fan dasturi Iqtisodiyot fakulteti (bayonnoma № 11, 24.06.2022 yil) hamda institut Kengashlarida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2022 yil "28" iyundagi №11- sonli bayonnoma).	
8	Fan / Modul uchun mas'ul SH.SH.Fayziyeva — "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrasida dotsenti, iqtisodiyot fanlari nomzodi	
9	SH.A.Yuldosheva — "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrasida assistenti	
	Taqrirlashchilari:	
	R.X.Ergashev	- QarMII, "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrasida professori, iqtisod fanlari doktori.
	T.Q.Ergashev	- QarMII, "Biznes va innovatsion menejment" kafedrasida dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi.